

FRAZEMALARDA POLISEMIYA VA MONOSEMIYA HODISALARI

Jumayev Begali Hudoymurodovich

Termiz State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8334779>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining ichki resurslariga tayangan holda til birliklarning semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda polisemiya, monosemiya kabi hodisalarga murojaat qilingan. Shu bilan birga, ushbu tillarga doir ba'zi idiomalarning polisemantik va monosemantik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Tilning leksik birliklari, semantika, frazeologiya, idiomalarning polisemantik va monosemantik jihatlari.

Abstract. This article relying on the internal resources of the English and Uzbek languages, taking into account the semantic properties of language units, phenomena such as polysemy and monosemy are addressed. At the same time, polysemantic and monosemantic features of some idioms related to these languages were analyzed.

Key words: Lexical units of the language, semantics, phraseology, polysemantic and monosemantic aspects of idioms.

Ma'lumki, frazeologik birliklar har bir tilning lug'at boyligini tashkil etuvchi til birligi hisoblanadi va ular til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shuningdek, ular boshqa til birliklari singari semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda *polisemiya*, *sinonimiya*, *antonimiya*, *omonimiya*, *paronimiya* kabi hodisalarga uchraydi. Frazeologik polisemiya deganda frazeologik birlikning o'zi va undan ortiq lug'aviy ma'no anglatishi tushuniladi.

Tilning leksik birliklari, shuningdek, ko'p ma'noli so'zlarni o'rganuvchi sohasiga leksikologiya deyiladi. So'zning ma'no tarkibi va u bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi leksikologiya bo'limi semasiologiya deyiladi. So'zlarning ayrimlari faqat bir leksik ma'nodan, ayrimlari ikki va undan ortiq leksik ma'nodan tarkib topadi. Shu xususiyatiga ko'ra ular ikkiga bo'linadi¹.

¹ Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – B., 1999

leksik ma'no

so'zlarning ikki va undan ortiq
leksik ma'noga ega bo'lishi, ya'ni
polisemiya

so'zlarning faqat bir leksik
ma'noga ega bo'lishi ya'ni
monosemiya

Polisemiya (yun. poly + sema) hodisasi semasiologiyaning markaziy masalasi hisoblanadi. Atoqli o'zbek tilshunosi M.Mirtojiyev polisemiyaning til boyligida alohida ahamiyatga egaligini qayd etadi. Olim lisondagi bu hodisaning qadimda Xitoy va Hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar tomonidan o'rganilganini, mazkur masalaga ajdodlarimizdan Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Alisher Navoi ham murojaat etganliklarini yozadi²

Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o'rin tutadi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar bilangina emas, so'zlarning leksik ma'nolari bilan ham o'lchanadi. Demak, so'zlarniig ko'p ma'noliligi - polisemiya til boyligida o'z o'rniga ega. Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdanoq olimlar; diqqatni o'ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o'rganishgan. Tilchilarimizning qayd etishicha, bu masala bilan xitoy va hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar ham shug'ullanishgan ekan³.

O'rta Osiyoning buyuk lesksikografi Mahmud Koshg'ariy ham o'zining mashhur "Devonu lug'atit turk" kitobida turkiy polisemantik so'zlarni qayd etadi. Biroq unda polisemantik so'zning har bir ma'nosi "alohida" so'z sifatida berilgan⁴. Shu bilan birga, Polisemantik so'zning muayyan davrda faol

² Миртожиев М. Ўзбек семасиологияси. – Тошкент. “Мумтоз сўз”, 2010

³ Каранг: И. В. Арнольд, Лексикология современного английского языка, М., 1959, стр. 47

⁴ Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). 3 жилдлик.1-жилд.Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солиҳ Муталли Тошкент: Фан. 1960. – Б. 168-169.; Кошғарий М. Туркий сўзлар девони

bo'lgan ma'nosi davrlar o'tishi bilan iste'moldan chiqishi yoki kuchsizlanishi mumkin. Masalan, "Devonu lug'otit turk"da: jig'ach – daraxt. O'zo'm jig'achī – uzum daraxti. Jag'aq jig'achī – yong'oq daraxti tarzida talqin qilinadi. M.Koshg'ariy yashagan davrda yog'och daraxt, uzunlik o'lchovi, o'tin ma'nolarini anglatgan. Ba'zi birikmalarda yog'och tarzida qo'llangan: Beshog'och (Beshyog'och)⁵. Ayni paytda bu so'z ustun, xoda, novda ma'nolarida qo'llanadi.

Bu holatni "Attuhfatuz zakiyati fillug'atit turkiya"da ham, Zamaxshariyning "Muqaddimatul adab"⁶ lug'atida ham ko'rishimiz mumkin. XV asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy ham turkiy til imkoniyatlarini fors tiliga solishtirib tahlil qilganida, so'zlardagi ma'no boyligiga to'xtab o'tgan edi⁷.

Bizga ma'lumki, **polisemiya** lug'aviy birliklarga ham, **grammatik** birliklarga ham xos. Shunga ko'ra **polisemiya** quyidagi turga bo'linadi:

Lug'aviy polisemiya - lug'aviy birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi: *bosh* 1-kishi *organizmining bo'yindan yuqori qismi*; *bosh* 2 - *miya* (uning boshi yaxshi ishlaydi) kabi.

Grammatik polisemiya - Grammatik birliklardagi ko'p manolilik hodisasi: *-ga* 1-o'zi qo'shilgan negiz harakat yo'naltirilgan predmet ekanini bildiradi: *Ukamga* tikildim; *- ga* 2- o'zi qo'shilgan negiz harakatni bajarishda maqsad bo'lgan predmet ekanini bildiradi: *Ukamga* oldim kabi. **Lug'aviy polisemiya** ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

(Devonu lug'otit turk). 3 jildlik.2-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Muttalili To'şkent: Fan. 1960. – B. 168-169.; Koşğariy M. Turkiy sūzllar devoni (Devonu lug'otit turk). 3 jildlik.3-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Muttalili To'şkent: Fan. 1960. – B. 168-169

⁵ Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Turkiy so'zlar devoni. 3 jildlik. 3-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: S.Muttalilov. FAN, Toshkent, 1960, – B.15

⁶ Қаранг: Миразиз Миртожиев. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент «фан» нашриёти 1984. – 135 б

⁷ Қаранг: Миразиз Миртожиев. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент «фан» нашриёти 1984. – 135 б

Lug‘aviy polisemiya

Leksik polisemiya- so‘zlardagi
ko‘p ma‘nolilik hodisasi

Frazeologik polisemiya-
iboralardagi ko‘p ma‘nolilik
hodisasi

Nazarimizda, frazeologizm, xususan, nutqiy polisemiya o‘ziga xos kategoriyaga daxldor xususiyatlarga ega: bu holat, bir tomondan, uni mustaqil til birligi sifatida anglashga zamin hozirlasa, ikkinchi tomondan, iborani boshqa lisoniy konstruksiyalardan farqlash imkonini beradi. Mazkur sifat ko‘rsatkichini shartli ravishda quyidagi tizimga solish mumkin:

1. Lug‘aviy ma‘no.
2. Yaxlit komponentlararo birikuv intizomi.
3. Grammatik kategoriyalar aniqligi.

Polysemy (/pəˈlɪsɪmi/ or /ˈpɒliːsɪmi/;] from Ancient Greek πολύ- (polý-) 'many', and σῆμα (sêma) 'sign') is the capacity for a sign (e.g. a symbol, a morpheme, a word, or a phrase) to have multiple related meanings. For example, a word can have several word senses. Polysemy is distinct from monosemy, where a word has a single meaning⁸.

Ingliz tadqiqotchisi Stephen Ullman o‘zining “Semantic: An Introduction to the Science of Meaning Polysemy” nomli kitobida polisemiyaqa quyidagicha izohlaydi: *Polysemy is a word that is derived from the Greek word poly (many) and semia(related to meaning). A word or an expression that has multiple of meanings, they are related conceptually or historically. A polysemous lexeme has several (apparently) related meanings*⁹.

⁸ <https://en.wikipedia.org/wiki/Polysemy>

⁹ Stephen Ullman, *Semantic: An Introduction to the Science of Meaning*, (Oxford: Blackwell, 1959), p. 118

Monosemiya yangi yaratilgan soʻzning hamda yangi oʻzlashtirilgan soʻzning boshlangʻich ishlatilish davriga xos deb qaraladi. Terminlar ham odatda monosemantik boʻladi. Monosemantik soʻzlar qatoriga shartli ravishda atoqli otlar ham kiritiladi. Har bir soʻz oʻz yaratilishiga koʻra monosemantik boʻladi: biror predmet, belgi, munosabatning nomi sifatida yuzaga keladi. Keyinchalik u boshqa hodisalarga ham nom boʻlib xizmat qiladi, shu yoʻl bilan oʻz maʼnosi oʻzgartiradi, taraqqiy ettiradi. Natijada soʻz maʼnosida turli tuman siljishlar voqe boʻladi, shuning oqibatlaridan biri sifatida **monosemantik** soʻz **polisemantik** soʻzga aylanadi.

Ingiliz tilida ham oʻzbek tilida ham polisemantik xususiyatga ega boʻlgan frazeologik birliklar tadqiqot natijasida kuzatildi. Masalan, oʻzbek tilidagi *boshi aylandi* frazeologik birligi ikki maʼnoni anglatadi:

- 1) behud boʻlmoq,
- 2) esankiramoq.

Oʻzbek tilidagi *koʻz yummoq* iborasi esa uch xil maʼnoga ega:

- 1) bilib turib oʻzini bilmaslikka solmoq;
2. olamdan oʻtmoq, qazo qilmoq, oʻlmoq;
3. eʼtiborsizlik bilan qaramoq

Ingiliz tilidagi *be living on borrowed time* frazeologik birligi ikki maʼnoni anglatadi:

- 1) *kutilmagan qisqa vaqt ichida yashamoq,*
- 2) *oʻlimga yaqin boʻlmoq kabi.*

Ingiliz va oʻzbek tillaridagi polisemik xususiyatlarga ega boʻlgan frazeologik birliklarga eʼtibor qaratsak.

Be living on borrowed time:

1) *to still be living after someone was expected to die, but likely to die soon: He's survived his third heart attack, but he knows he's living on borrowed time.*

2) *to be likely to fail or stop existing soon: The last remaining coal mines are now living on borrowed time.*

Shunday qilib, frazeologik birliklar milliy xarakterga ega boʻlib, har bir xalq oʻzining frazeologik birliklariga qarab ish koʻradi. Ular semantik jihatdan umumlashgan koʻchma maʼno ifodalaydi, grammatik jihatdan esa ularning butunligi, komponentlarining oʻzaro birikuv va gapda shu tartibni saqlash bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. Turkiy soʻzlar devoni. 3 jildlik. 3-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: S.Mutallibov. FAN, Toshkent, 1960, – B.15

2. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – B., 1999
3. Stephen Ullman, Semantic: An Introduction to the Science of Meaning, (Oxford: Blackwell,
4. И. В. Арнольд, Лексикология современного английского языка, М., 1959, стр. 47
5. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). 3 жилдлик.1-жилд.Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солиҳ Муталли Тошкент: Фан.1960. – Б.168-169.
6. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). 3 жилдлик.2-жилд.Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солиҳ Муталли Тошкент: Фан.1960. – Б.168-169.
7. Миразиз Миртожиев. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент «фан» нашриёти 1984. – 135 б.
8. Миртожиев М. Ўзбек семасиологияси. – Тошкент. “Мумтоз сўз”, 2010
9. <https://en.wikipedia.org/wiki/Polysemy>



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

